



TADBIRKORLIK MUHITINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA OMILLARIDAN FOYDALANISH

Sultonov Mansur G'aniyevich

Jizzax politexnika instituti

Iqtisodiyot va menejment kafedrasida assistenti

sultonovmansur77@gmail.com

Kuzmina Svetlana Nikolaevna

Sankt-Peterburg davlat elektrotexnika universiteti

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 20

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.914>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

kichik biznes, tadbirkorlik, YAIM, motivatsiya, chakana savdo, daromad, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi.

ANNOTATSIYA

Jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotlari tarkibining o'zgarishi, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarning ustuvor ahamiyat kasb etishi hamda xo'jalik faoliyatining ijtimoiylashuv jarayonlarining jadallashuvi zamonaviy ijtimoiy mehnat munosabatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi. Hozirgi kunda tadbirkorlik muhitini rivojlantirishning dolzarbligi hamda motivatsiya omillaridan foydalanish zaruriyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kirish. Bugungi kunda "rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlik ish o'rinlarining 60-70 foizini tashkil qiladi. Binobarin, ular rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 55% ni tashkil qiladi. Kichik biznesda ham barcha chakana savdo xodimlarining 39,8 foizi ishlaydi. Chakana savdo firmalaridan o'rta oyluk daromad 22341 AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu firmalarning o'rta oyluk daromadi 51% ni tashkil qiladi va egalari daromad olganlarida yirik mahalliy zanjirlarda qayta sarmoya kiritishga moyildir".¹

O'zbekiston Respublikasida ham tadbirkorlikning rivojiga juda katta e'tibor qaratilishi natijasida mazkur faoliyat turi milliy iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylanishga ulgurdi. Bugungi kunda tadbirkorlikning hissasiga yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'pi, ish bilan bandlarning 80 % ga yaqini to'g'ri keladi. Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oilalar daromadi va ularning farovonligi, yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi aynan ushbu tadbirkorlik rivojiga bog'liq.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Jahon miqosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilangan".² Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu sohani iqtisodiy mazmuni, unga ta'sir etuvchi omillarni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zamon talabi hisoblanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Bu - xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdir".³

Iqtisodiy islohotlar sharoitida rag'batlantirish tizimidan motivatsiya tizimiga o'tishning uddasidan chiqqan korxonalar yuqori raqobatbardoshlik darajasiga erishgan. Bu tushunchalarning o'zgarishigina emas, balki juda yuqori darajali iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir: xodimlar motivlarining barcha rang-barangligi va o'ziga xosligi rag'batlantirish tizimi o'rni egallagan mos keluvchi motivatsiya tizimida aks etadi.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning innovatsion yo'naltirilganligi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish,

mazkur faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish va ularning ilmiy-uslubiy va nazariy asoslarini tadqiq qilish asosida motivatsiya omillaridan foydalanish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish lozim bo'lib, u mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari, zamonaviy bozor iqtisodiyotidagi uning roli O'zbekiston va chet el olimlari tomonidan chuqur o'rganib chiqilgan. Butun dunyoga mashhur chet el iqtisodchilarining ko'plab ilmiy asarlarida zamonaviy bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish muammolarining nazariy hamda amaliy jihatlarini ko'rib chiqilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida izlanishlar olib borayotgan bir guruh professorlar M. G. Lapusta va boshqalar tahriri ostida Moskvada chop etilgan "Predprinimatelstvo" darsligida – "tadbirkorlikning umumiy tavsifi, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy shakllari, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, biznes-reja tuzish, moliyaviy faoliyatni tahlil qilish, soliqlar tortish va tadbirkorlik psixologiyasi masalalari tadqiq etilgan va aniq fikrlar bilan ifodalangan".⁴

Jahon miqosidagi tadbirkorlik sohasi rivojlanishida o'z izlanishlarini olib borayotgan tadqiqotchilardan mashhur Amerikalik iqtisodchi va sotsiolog Y. Shumpeter o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida quyidagi ta'rifni keltirib o'tgan ya'ni, "tadbirkor iqtisodiy omil sifatida ahamiyati bo'yicha kapital, mehnat va yer bilan bir xil darajada turadi" deb izoh bergan.

Shuningdek, Y. Shumpeter tadbirkorlik novator (yangilik-bunyod qiluvchi odam) deb ta'riflagan va tadbirkorlik faoliyatini kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta rol o'ynaydigan, yangiliklarni joriy etishdan iborat deb ta'kidlab o'tadi.⁵

Darhaqiqat, tadbirkorlik faoliyati yer, kapital va mehnat omilini harakatga keltiruvchi tashabbuskorlik va ishchanlik qobiliyatiga asoslangan tarzda faoliyat turi hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkorlik omili bugungi real hayotda bo'lishi zarur va shartdir. Chunki, har qanday ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati yangi faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi ijodkorlik natijalarini joriy etishdan iborat bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni tadbirkor deb ham atash mumkin.

Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish borasida mamlakatimizning yetakchi olimlari ham o'z izlanishlarini olib borganlar. Xususan, bu ilmiy qarashlar ularning shu sohaga doir ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, Respublikamiz olimlaridan S. S. G'ulomov quyidagicha ta'kidlab o'tgan, ya'ni "tadbirkor shunday insonki, u pul mablag'lari, materiallar va ishchi kuchini jamlashtirib,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risidagi farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)

² Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: NMIU 2017. 39-bet.

³ Smiljanic Stasha. Small Business Administration, 2022. URL: <https://policyadvice.net/insurance/insights/small-business-statistics/>

⁴ М.Г.Лапуста, А.Г.Порцелев, Ю.Л.Старостин, Л.Г.Скамай. Предпринимательство. М.: Изд. "Инфра-М" 2003.-534 стр.

⁵ Й. Шумпетер Теория экономического развития. - М.: 1982. - 29 бет.

yangi mahsulot, yangi biznes, yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi”⁶.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan. Ushbu tadqiqot ma'lumotlari rasmiy manbalardan olinib, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotimizni rivojlantirishda tadbirkorlikni rivojlantirish muammolarini ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, xorij tajribalarini umumlashtirish va mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar bo'yicha olingan natijalarga tayangan holda tadbirkorlik muhitini rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalari. Inson kamoloti indeksida uchta asosiy omillar - uzoq va sog'lom hayot kechirish, bilim olish va munosib turmush darajasi hisobga olinadi, munosib turmush darajasi esa ko'proq tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga asoslanadi. Uning yechimi sifatida esa "Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish demakdir.

Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman. Bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim”.

Shu o'rinda tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratsak, bu bozor iqtisodiyotining asosi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini, yalpi milliy mahsulot tarkibi va sifatini, aholining ish bilan bandligi va daromadi darajasini belgilaydigan yetakchi sektorlardan biri hisoblanadi. Uni rivojlantirish moslashuvchan aralash iqtisodiyotni shakllantirish umumjahon xususiyatiga ega. Shuning uchun butun dunyoda tadbirkorlikni har taraflama keng rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor qaratiladi.⁷

Tadbirkorlarning faolligi davlatning demokratlashtirilishi va milliy iqtisodiyot ochiqligi, ishbilarmonlik muhiti asosiy mezonlaridan biridir. Jahondagi ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti kichik biznes aholining ish bilan bandligini ta'minlash va daromadini ko'paytirishning eng muhim vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mazkur soha rivoji ish bilan bandlik va mehnat munosabatlarini takomillashtirishda alohida o'rin egallaydi. So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bu bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar mazkur sohaning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberalashtirish sharoitida keng ko'lamli islohotlar bevosita tadbirkorlik rivoji bilan bog'liq. Chunki kichik biznes yirik biznesga nisbatan bir qator raqobat ustunliklariga ega ekanligi bilan farqlanadi, xususan kichik biznesning moslashuvchanligi va ixchamligi biznesning muhim belgisi bo'lib, zamonaviy biznes sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikni – kapitalni yo'naltirishning yangi sohalarini izlash, mavjud mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangilarini yaratish, shaxsiy usuvorlikni rivojlantirish, daromad olish uchun turli imkoniyatlardan samarali foydalanish deb ta'riflash mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish, faoliyat sohasining o'zgartirilishi yoki yangisi korxonaga yoki tarmoq barpo etilishida majburiy foydalanish deb tavsiflanadi. Tadbirkorlik mohiyatini idrok etishda tadbirkorlarning o'zaro bog'liq to'rt faoliyatini alohida ko'rsatgan amerikalik iqtisodchilar R.Mak Konnell va S.Yu. Bryularning quyidagi nuqtai nazarlari alohida ahamiyat kasb etadi:

– tadbirkor yer, mablag' va mehnat resurslarini mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat jarayoniga birlashtirish tashabbusini o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor biznesni olib borish jarayonida asosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni, ya'ni biznesni rivojlantirish yo'nalishlari, korxonaga faoliyati yo'nalishini belgilovchi operatsiyalarni o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor yangi mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarishga intiluvchi, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi yoki biznesni tashkil qilishni va rivojlanishning yangi shakllarini olib kiruvchi tashabbuskor shaxsdir;

– tadbirkor tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xavfni o'z zimmasiga oladi, zero, tadbirkor uchun daromad olish kafolatlanmagan, sarf etilgan vaqt, harakat va qobiliyatlardan daromad olish barobarida

zarar ko'rish ham mumkin. Bunday hollarda tadbirkor nafaqat o'zining o'z vaqti, mehnati va ishbilarmonlik obro'si bilan, balki sarf etilgan mablag' bilan ham tavakkal qiladi. Shunday qilib, ijodkorlik tadbirkorlik vazifalaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida doim mavjud bo'lishi shartdir.

Akademik Q.X.Abduraxmonovning fikricha “Kichik biznes – bozor iqtisodiyotining asosi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini yalpi milliy mahsulot tarkibi va sifatini, aholining ish bilan bandligi va daromadi darajasini belgilaydigan yetakchi sektor hisoblanadi. Shuning uchun butun dunyoda kichik biznesni har taraflama keng rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor qaratiladi”⁸.

Tarix tadbirkorlik mehnat taqsimoti ro'y bergan, kapital mavjud bo'lgan, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi amal qilgan barcha jamiyatlarda rivojlanganidan dalolat beradi. Biroq tadbirkorlikni baholashga dastlabki tizimli yondoshuv XVII asrning oxiri – XVIII boshlarida ro'y berdi. “Tadbirkor” va “tadbirkorlik” tushunchalarini hozirgi davr ma'nosida ilk bor ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo'llagan. U vafotidan keyin – 1755 yilda nashr etilgan “Umuman savdo xususiyati to'g'risidagi esse” asarida “tadbirkor” atamasini muomalaga kiritib, bunday shaxs muayyan narsani falon narxda sotib olib, piston narxda sotadi, ya'ni ma'lum darajada tavakkalchilik qiladi, deb ko'rsatgan.

“Tadbirkorlik” atamasi dastlab qadimgi yunon huquqida “tijorat faoliyati” deb tushunilgan. Metodologik nuqtai nazardan mazkur atamani hayotga tadbiq etgan fransuz iqtisodchisi R.Kantilon hisoblanadi (fransuz tilidan “tadbirkorlik” vositachi deb tarjima qilinadi)⁹. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyat jarayonini tahlil etish va bu boradagi muammolarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etganligi bois, uni ilmiy - nazariy o'rganish, huquqiy asoslarni o'rganish va kelajakda yanada rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

Tadbirkorlik va uni baholash bo'yicha uslubiy xilma-xilliklar uning jamiyatda tutgan o'rini turlicha baholashga asos bo'lmoqda. Bularni bir tizimga keltirib xulosa qilinsa, erkin tadbirkorlik shaxsiy tashabbusga asoslangan, o'z mol-mulki hisobidan yuqori daromad olishdan manfaatdor va uning xavf-xatariga bardoshli, haq-huquqlari kafolatlangan, qonun doirasida faoliyat yuritadigan, bozor xo'jaligini tashkil etish va boshqarishning mustaqil faoliyat turi hisoblanadi.

Umumiy tarzda “tadbirkorlik” va “biznes” tushunchalarining iqtisodiy mohiyati bir-biridan deyarli farq qilmaydi, lekin mazkur farqlanish iqtisodiy munosabatlar, mulkiy ma'suliyat va javobgarlikda o'ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi. Biznes mohiyatan pul topish yo'lidagi harakat, boylikni oshirish, mulkni boyitishga intilish, aniq bir faoliyat turi bilan doimiy shug'ullanish, o'zidagi iqtisodiy, moliyaviy, intellektual imkoniyat, qobiliyat va sharoitlarni ishga solish orqali natijalar sifatida talqin qilinsa, tadbirkorlik - bu innovatsion faoliyat sifatida yangilikka intilishdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va unga keng yo'l ochib berish aholini bandligini samarali ta'minlash va bu orqali aholi farovonligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Jahon tajribasini o'rganish bozor sharoitida tadbirkorlikni yuritish, uning rivojlanishini turli institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlash, samarali raqobat muhitini yaratish shakllari va usullaridan eng maqbulini tanlash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekistonda va rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish raqobat muhiti, xususan raqobatbardoshlikning rivojlanish holatini baholash usullaridan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlikning rivojlanishida motivatsiya – tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish, uning rentabelligini oshirish va xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirishda xo'jalik yuritishning an'anaviy usullaridan foydalanishda, xodimlarning unumli mehnat qilishga undovchi rag'bat omillaridan samarali foydalanish faoliyat turidir. Kichik biznes esa tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida namoyon bo'ladi hamda alohida tadbirkorni rag'batlantirishning birmuncha oddiy va yanada samaraliroq tizimiga ega bo'lib, qo'shimcha urinish va harakatlarni rag'batlantiradi va ishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi.

Dunyoning bir qator davlatlarida maxsus hukumat tashkilotlari sifatida AQSHda - SBA, Buyuk Britaniyada - “Kichik biznesga xizmat ko'rsatish milliy Agentligi” (SBS), Germaniyada - “Kichik va o'rta biznes bosh Direktorati” (DG VIII), Yaponiyada - “Kichik va o'rta tadbirkorlik Agentligi” (SMEA), Koreyada - “Kichik va o'rta biznes

⁶ Фулмолов С.С. Тadbirkorlik va kichik biznes. -Т.: - 32 –б.

⁷ Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. -Т.: O'zR FA “Fan” nashriyoti, 2019. - 568 B.

⁸ Предпринимательство: Учебник для ВУЗов. Под. Ред.В.Я.Гординокеля, Г.Б.Полыка, Швандара. –М.: ЮНИТИ, 1999.

⁹ Sirojiddinov I., Hojiboyeva I. Hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Iqtisodiyot va ta'lim. -Т.: 2017 № 4. - B. 36

administratsiyasi” tashkil etilgan va bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirish yoʻlida faoliyat koʻrsatmoqda”¹⁰.

Qoʻshni mamlakatlardan Xitoy tajribasi bizda katta qiziqish uygʻotadi. U yerda statistika maʼlumotlari shundan dalolat berib turibdiki, Xitoy korxonalarining 99 foizi kichik va oʻrta korxonalar toifasiga kiradi va ular yalpi ichki mahsulotning 55 foizidan koʻpini ishlab chiqarish bilan birga mamlakat ishchi kuchining 75 foizidan foydalanadi. Eksport hajmining 60 foizidan ortigʻi va soliqlardan keladigan daromadlarning taxminan 45 foizi kichik va oʻrta korxonalar tomonidan taʼminlanadi.

Ayrim rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Xitoy, Hindiston va Buyuk Britaniyada kichik biznes subʼyektlarini aniqlash mezonini faoliyat turiga qarab ishchilar soni, yillik daromadi, kapital qoʻyilmalar miqdori, asosiy fondlar miqdori va yillik aylanmalar miqdori

belgilangan (1-jadval). Tahlil maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, AQSH, Yaponiya, va Kanadada kichik biznesni aniqlash mezonini ishchilar soni va yillik daromadi bilan aniqlanadi. Yevropa mamlakatlari Germaniya, Fransiya va Italiyada kabi mamlakatlarda kichik biznes subʼyektlari mikrofirmalar, kichik va oʻrta korxonalar boʻlinib, mezon sifatida ishchilar soni, kapital qoʻyilmalar miqdori va yillik oborot koʻrsatkichlar belgilangan. Shuningdek, Rossiya, Xitoy va Oʻzbekistonda ham kichik biznes subʼyektlarini aniqlash mezonini faqat ishchilar soni belgilangan.

Motivlashtirish nazariyasiga asoslanib uning turli modellari ishlab chiqilgan va amaliyotda qoʻllanib kelinmoqda. Ularning asosiylari quyidagilardir oqilona (ratsional) model, insoniy munosabatlarni motivlashtirish modeli, kompleks motivlashtirish modeli.

1-jadval

Ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesni aniqlash mezonlari¹¹

Davlatlar	Mezonlar	Mikro-firmalar	Kichik korxonalar	Motivatsiya strategiyasi
AQSH	Ishchilar soni	50 kishigacha	100 dan 1500 kishigacha	Ragʻbatlantirish va jazo strategiyasi
	Yillik tushum	\$ 0,75 mln. dollargacha	\$10 mln. dan \$38 mln. gacha	
Kanada	Ishchilar soni	49 kishigacha	50 dan 500 kishigacha	Ragʻbatlantirish va jazo strategiyasi
	Yillik tushum	\$ 5 mln. dollargacha	\$10 mln. dan \$ 50 mln.gacha	
Yaponiya	Ishchilar soni	Ishlab chiqarishda 100 tagacha	Boshqa faoliyat turlari 100-300 tagacha	Menejerlar bilan doimiy aloqada boʻlish strategiyasi
	Yillik tushum \$ ming	\$474 minggacha 2844 minggacha	\$ 948 minggacha	
Xitoy	Ishchilar soni (kishi)	100 tagacha	300 tagacha	Ish orqali motivlashtirish
	Yillik foyda	Faoliyat turiga qarab 20 mln.yuandan 100 mln.yuangacha		
	Yillik daromad	Tadbirkorlik daromadi \$ 500 ming dan \$ 1 mln.gacha		

Motivlashtirish strategiyasini tanlashda uchta yondoshuv mavjud:

1. Ragʻbatlantirish va jazo strategiyasi, yaʼni, kishilar mukofot olish uchun ishlaydilar:

- kim koʻp va yaxshi ishlasa, unga yaxshi hak toʻlanadi;
- kim undan koʻp ishlasa shunchalik koʻp haq toʻlanadi;
- kim sifatli ishlasa, u jazolanadi.

2. Ish orqali motivlashtirish: xodimga uni qoniqtiradigan ishni bersangiz bas, ijro etish sifati yuqori boʻladi.

3. Menejerlar bilan doimiy aloqada boʻlish strategiyasi: boʻysunuvchilar bilan birga maqsadni aniklab olish, unga ijobiy aks aloqaga imkon berish, hattoki u toʻgʻri yoki notoʻgʻri, yoxud yangilishgan hollarda ham. Bu motivlashtirish modeli rahbar bilan xodim oʻrtasidagi munosabatlarni tahlil qilish va unga ustuvorlik berishga asoslanadi.

Xitoy tajribasida motivlashtirishning quyidagi usullari qoʻllaniladi: - pulni ragʻbatlantirish va mukofotlash sifatida ishlatish; jazolash; raqobatni kuchaytirish; ish orqali motivlashtirish; yutuqni tan olish va taqdirlash; xodimlarni oʻqitish va yuksaltirish; salbiy taʼsiri cheklash va meʼyorlash; guruh mehnatini mukofotlash va ragʻbatlantirish; xodimlarni boshqarish ishlariga jalb etish va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot Strategiyasi toʻgʻrisidagi farmoni (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)

2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. T.: NMIU 2017. 39-bet.

3. Smiljanic Stasha. Small Business Administration, 2022. URL:<https://policyadvice.net/insurance/insights/small-business-statistics/>

4. Фридман ДЖ. Петти В, Смит А., Рикардо Д. Сочинения // Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО Пресс, 2000. – 164 с.; Кантильон Р. Основы предпринимательской деятельности. Москва: 2001. – 44 с.; Marshall A. Industry and trade. – Vani

Xulosa va takliflar. Tadbirkorlarning faolligi davlatning demokratlashtirilishi va milliy iqtisodiyot ochiqligi, ishbiarmonlik muhiti asosiy mezonlaridan biridir. Jahondagi koʻpchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti kichik biznes aholining ish bilan bandligini taʼminlash va daromadini koʻpaytirishning eng muhim vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Bizning fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlarining tadbirkorlik faolligini oshirish yoʻnalishlarini ikki guruhga boʻlish mumkin: tadbirkorlik imkoniyatlarini ishga soladigan yoʻnalishlar, biznes faoliyati natijalarini yaxshilashga qaratiladigan yoʻnalishlar.

Motivatsiya omillaridan foydalanish tadbirkorlikni rivojlantirishda ruhiy omil boʻlib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehtimollardir. Motivatsiya xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga ragʻbatlantiruvchi kuchli vosita hisoblanadi, demak motivlashtirish - bu kishilar faoliyatini ruhiy yoʻllar bilan maqsadga muvofiq yoʻnaltirishdir.

Prakashan, 2015. – 556 p. Пол Э. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика. – Издательство: Вильямс, 2015. – 1360 с.;

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01. 2020

6. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. -T.: OʻzR FA “Fan” nashriyoti, 2019. - 568 B.

7. Предпринимательство: Учебник для ВУЗов Под. Ред.В.Я.Гординкея, Г.Б.Поляка, Швандара. –М.: ЮНИТИ, 1999.

8. Sirojiddinov I., Hojiboyeva I. Hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Iqtisodiyot va taʼlim. -T.: 2017 № 4, - B. 36

9. Stat.uz

10. <http://www.m-economy.ru>

¹⁰Малое предпринимательство в России: прошлое, настоящее и будущее. Под ред. Б.Г.Ясина, А.Ю.Чепуренко, В.В.Буева. – М.: Фонд «Либеральная миссия», 2003. – С. 137.

¹¹ <http://www.giac.ru>.© НИ.Московский центр развития предпринимательства маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.